

**BOBUR NOMIDAGI ANDIJON VILOYATI
AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI
ILMIY METODIKA XIZMATI**



**HECH KIM MEHR VA E'TIBORDAN
CHETDA EMAS**

metodik qo'llanma

ANDIJON – 2024

Ilmiy metodika xizmati tomonidan tayyorlandi

Ommaviy tadbirlarning zamonaviy shakl va usullarini qo'llash metodikasi : metodik qo'llanma / Bobur nomidagi Andijon viloyati axborot-kutubxona markazi ; tuzuvchi D. Karimova. – Andijon, 2024. – 16 b.

Ushbu metodik qo'llanma axborot-kutubxona muassasalarida mutaxassislar aqlan va jismonan nuqsoni bo'lgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, ularning qiziqishlariga ko'ra adabiyotlarni targ'ib qilishda keng foydalanishlari uchun tuzildi.



“O’zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to’g’risida”gi Qonun, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1992-yil 14-oktyabrdagi 47/3-sonli qaroriga asosan har yili 3-dekabr – “Xalqaro nogironlar kuni” sifatida respublikamizda keng nishonlanadi. Bu esa hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan kuchli va manzilli ijtimoiy himoya siyosatining yaqqol isbotidir.

Ushbu sana butun dunyo bo’ylab keng nishonlanadi va bundun asosiy maqsad aqlan va jismonan nuqsoni bo’lgan fuqarolarni har tomonlama qo’llab-quvvatlashdan iborat.

TARIXGA NAZAR

Dunyo miqyosida nogironlar hayot tarzini yaxshilashga e’tibor qaratish maqsadida BMT tomonidan 1983-1992 yillar Xalqaro nogironlar o’n yilligi etib belgilangan edi.

Mazkur o’n yillik yakunida, 1992-yil 14-oktyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 37-yalpi majlisida qabul qilingan rezolyutsiyaga muvofiq, 3 dekabr – Xalqaro nogironlar kuni sifatida e’tirof etilgan. SHundan buyon har yili mazkur sana doirasida nogironlar duch kelayotgan muammolarni chuqurroq anglash, shunday masalalarni hal etish, ularning qadr-qimmati, huquqini himoyalash, turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar uyshtiriladi, moddiy ko’mak ajratiladi.

Bu borada mamlakatimizda ham tizimli xayrli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu toifa insonlar imkoniyati sog’ligi bilan bog’liq muammo sabab cheklangan. Shu bois har tomonlama qo’llab-quvvatlash orqali ularning jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi faolligini ta’minlashga katta e’tibor qaratiladi.

Bugungi kunga kelib dunyoda 1 milliarddan ortiq inson, ya’ni har yetti kishidan biri nogironlikning muayyan turidan aziyat chekadi. Ularning 100 milliondan ortig’i bolalar. Umuman, yer yuzida nuqsoni bor

fugorolarning 80 foizdan ko'pi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Demak, safimizdagi imkoniyati cheklanganlarni har tomonlama teng huquqlilagini ta'minlash, qadr-qimmatini himoya qilish zarur.

– Nogironlik inklyuziyasi inson huquqini, barqaror rivojlanish, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biridir. Ushbu masalada 2030-yilga qadar Barqaror rivojlanish kun tartibi belgilangan. Nogironlar huquqini ro'yobga chiqarish harakati nafaqat adolat masalasi, balki jamiyat taraqqiyotiga kiritilgan sarmoyadir, – deyiladi BMT saytida berilgan maqolada.

Ma'lumki, nogironlarning sog'lig'ini saqlash, ularga ta'lim, ish berish, jamiyatda to'laqonli ishtirok etish imkonini taqdim etish oson emas.

Shunga qaramasdan, so'nggi bir necha yil davomida nogiron bolalar va kattalar imkoniyatini kengaytirish bo'yicha ijobiy tendentsiya kuzatilyapti. Shu o'rinda mamlakatimizda ham nogironlarga e'tibor yuqori ekanini alohida ta'kidlash kerak.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasiga muvofiq, har bir kishi ta'lim olish huquqiga ega va davlat o'rta maxsus ta'limni bepul olishi mumkin. O'rta maktabga kirish imkoniyati nogironligi bo'limgan kishilar uchun 99,8 foizni tashkil etsa-da, nogironligi bor kishilar uchun bu ko'rsatkich 84 foizga teng.

Milliy miqyosda nogironligi bo'lgan kishilarning saylovda ovoz berish huquqini ta'minlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2016-yilgi O'zbekiston Prezidenti saylovida erkinlikka erishish borasida muayyan o'zgarish qayd etilgan. Saylov uchastkalari o'zaro zich binolarda tashkil qilingan, "brayl" alifbosida saylov byulletenlari tayyorlanib, nogironlar o'z uyida ovoz berish huquqidan foydalangan.

2017-yil nogironlar va siyosiy partiyalar o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum imzolandi. Ushbu hujjatga ko'ra, siyosiy partiyalarga turli saylovlarda nogiron nomzodlarni ham ko'rsatish majburiyati yuklatildi. Zero, nogironligi bo'lgan kishilarning siyosiy hayotda faol ishtirok etishi inson huquqlari to'g'risidagi konvensiya doirasida majburiyat hisoblanadi.



O'ZBEKISTONDA QANCHА NOGIRONLIGI BOR SHAXSLAR YASHAYDI?

Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilda O'zbekiston aholisining bir millionga yaqini, ya'ni 2,3 foizi nogironligi bo'lgan shaxslar ekani aniqlangan. Mamlakatda 3 va undan yuqori yoshdagi jami aholining 13,5 foizi nogironlikning ma'lum bir shakliga, 3,5 foizi esa nogironlikning og'ir shakliga ega. Tadqiqotga ko'ra bizdagi nogironlikning tarqalishi yosh bilan chambarchas bog'liqdir. Unga ko'ra, 60 va undan yuqori yoshdagilarning 54 foizida nogironlikning ma'lum bir shakli aniqlangan. Yosh bilan bog'laydigan bo'lsak, O'zbekistondagi 18 yoshgacha bo'lgan imkoniyati cheklanganlar 142,3 ming, pensa yoshiga yetmagan nogironligi bor shaxslar esa 396,7 ming nafarni tashkil qiladi. Aniqlanishicha, nogironligi tasdiqlangan ayollar soni 369,5 ming nafar bo'lib, erkaklar esa 475,8 ming nafarni tashkil qilib, ayollardan nisbatan ko'proqdir. Ma'lum bo'lishicha, bizdagi nogironligi bor shaxslarning katta qismi qishloq joylarda yashaydi. Bunda, shaharlarda 313,3 ming, qishloqlarda esa 532 ming nogironligi bor shaxslar istiqomad qiladi. Bu borada eng yuqori ko'rsatgichlar Navoiy va Sirdaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatilmoxda.

HUQUQ, IMKONIYAT, TENGLIK...

O'zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarga beriladigan e'tibor qaysidir ma'noda yetarli darajada. Masalan, nogironligi bo'lgan shaxslar mamlakatdagi istalgan davlat xizmatlaridan navbatsiz va imtiyozli ravishda foydalanish huquqiga ega. Tibbiyat markazidagi xizmatlar, xalq qabulxonalari, mansabdor shaxslar qabuliga kirish shular jumlasidandir. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ham nogironlar huquqi, imtiyozlari to'g'risida bir qancha qonun va qarorlar mavjud. Ulardan asosiyalaridan biri bu Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonundir. Mazkur qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 22-iyulda qabul qilingan bo'lib, Senat tomonidan 2020-yil 11-sentyabrda ma'qullangan. Unda, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan barcha huquq va erkinliklar mavjuddir. Qo'shimcha qilish joizki, Nogironligi bo'lgan shaxslar ham O'zbekiston Respublikasiga ahamiyatli bo'lgan barcha saylovlarida ishtirok etish huquqiga egadir. Bunda, nogironlikning barcha ko'rinishidagi insonlar o'z uyidan chiqmagan holda, saylov komisiyasi tomonidan tuzilgan navbatchilik guruhlari yordamida ovoz berish imkoniyati bor. Ko'zi ojizlar uchun esa barcha saylov byulletin qog'ozlari brayl alifbosida yoziladi. Bundan tashqari imkoniyati cheklanganlar uchun imtiyozlar talaygina. Keling, bulardan ko'zga ko'rinarli bir qancha imtiyozlarni ko'rib chiqsak:

- Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun OTMdA davlat granti asosida qo'shimcha qabul kvotasi ajratiladi.
- Nogironligi bo'lgan shaxslarning avtotransport vositalari uchun ajratilgan to'xtab turish joylaridan foydalanganlik uchun haq olinmaydi.
- I-va II-guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga DXM va (yoki) YaIDXP orqali xizmat ko'rsatishda 50 foiz miqdorida chegirma qo'llaniladi.
- Nogironligi bo'lgan shaxslar jamoat birlashmalari ramzlarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish uchun davlat boji undirilmaydi.

- Nogironligi bo’lgan 18 yoshgacha bolalarga hamda I-yoki II-guruh nogironligi bo’lgan shaxslarga nogironlik nafaqasini tayinlashda davlat xizmatlari bepul ko’rsatiladi.
- I-va II-guruh nogironligi bo’lgan shaxslar bolalarini davlat mакtabgacha ta’lim muassasalariga qabul qilishda imtiyozli ro’yxatga kiritilgan.
- Tegishli tibbiy xulosa asosida muhtoj shaxslarga protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari beriladi.
- Nogironligi bo’lgan shaxslar sanatoriy-kurortda bepul sog’lomlashtirish huquqiga ega.
- I-va II-guruh nogironligi bo’lgan shaxslarning mulkida bo’lgan mol-mulk 60 kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi.
- Mehmonxonalarda nogironligi bo’lgan shaxslar uchun alohida sharoitga ega xona tashkil etiladi.
- Xizmat turar joylarida yashayotgan I-va II-guruh nogironlari xizmat uyidan boshqa turar joy bergen holda ko’chiriladi.
- Nogironligi bo’lgan yoshlarga BHMning 50 baravarigacha (17 mln so’mgacha) subsidiya ajratiladi.
- I-va II-guruh nogironligi bo’lgan shaxslar yer solig’idan ozod qilinadi.
- Byudjet mablag’lari hisobiga moliyalashtiriladigan basseynlarda shug’ullanish va ularidan foydalanish uchun nogironligi bo’lgan bolalar to’lovdan ozod etiladi.
- Bolalikdan nogiron bo’lganlar, shuningdek I-va II-guruh nogironlarining MHTEKMning 3 baravari (3 mln. 150 ming so’m) miqdoridagi mablag’lari daromad solig’iga tortilmaydi.

* * *



NAJOT TOPGAN YURAKLAR

“Sen yolg’iz emassan” Respublika bolalar jamoat fondi ota-onagi amxo’rligisiz qolgan, alohida ehtiyojga ega hamda imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash maqsadida 2002-yil noyabrda Lola Karimova – Tillaeva tashabbusi bilan tashkil etilgan. Bugungi kunda u O’zbekistondagi yirik bolalar jamg’armasi sanaladi.

“Sen yolg’iz emassan” fondi tug’ma yurak nuqsoniga ega bo’lgan kamta’minlangan oila farzandlari va ota-onasi qaramog’isiz qolgan bolajonlarga ko’mak beradi, ularning operatsiyalariga homiylik qiladi va tashkillashtiradi. Fond ko’magida, bolajonlar Frantsiyadan tashrif buyurgan jarrohlar tomonidan operatsiya qilinadilar, eng og’ir tashhislarga ega bo’lgan bolalar esa jarrohlik uchun Frantsianing Nant shahrida joylashgan shifoxonaga yuboriladi.

Ma’lumotlarga ko’ra, har yuz nafar chaqaloqning bittasi tug’ma yurak nuqsoni bilan dunyoga kelar ekan. Murakkab tashhislarga ega bo’lgan bolajonlarning aksariyati, operatsiya qilinmagan taqdirda, 5 yoshga kirmasdan hayotdan ko’z yumishlari mumkin.

Yurak xastaligiga ega bo’lgan bolajonlarni davolashda yordam ko’rsatish hozirda “Sen yolg’iz emassan” fondi faoliyatining asosiy vazifalaridan biridir.

“Sen yolg’iz emassan” Fondining moliyaviy ko’magi bilan shu kunga qadar frantsiyalik kardiojarrohlar tomonidan o’zbekistonlik kamta’minlangan oila farzandlari va Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga 130dan ortiq murakkab yurak operatsiyalari bajarildi, ulardan 21 tasi Fransianing Nant shahridagi klinikada amalga oshirildi

Ota-onasi qaramog’isiz qolgan bolalar Mehribonlik uylarida tarbiyalanib bitirgandan so’ng jamiyatda ijtimoiy moslashuvida ko’plab

muammolarga duch keladilar. Sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlari orasidagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, bolalar uyi bitiruvchilarining atigi 10% mustaqil hayotga moslashadilar. Qolganlari esa balog'ata yetgan davrda, katta hayot qiyinchiliklarini yengishda ko'makka muhtoj.

22 yil davomida "Sen yolg'iz emassan" Fondi nafaqat Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, balki bitiruvchilariga ham beg'araz yordam ko'rsatib kelmoqda. Xususan, Fond tomonidan uy-joy olish, bitiruvchilar va ularning oila a'zolariga tibbiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy va huquqiy himoya bo'yicha muammolarni hal qilishda ko'mak ko'rsatildi. Shuningdek, Fond oliy o'quv yurtlariga kirish, to'lov harajatlarini qoplash va yotoqhonalarga joylashishga amaliy yordam bermoqda.

Bobur nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazida ham nogironligi bo'lgan shaxslar, imkoniyati cheklangan kitobxonlar uchun yetarlicha sharoitlar yaratilgan bo'lib markaz binosiga kirish qismida pandus o'rnatilgan. Nogironlik aravachasidagi shaxslar erkin harakatlanishi, jamg'armadagi mavjud adabiyotlardan to'laqonli foydalanishlari uchun qulay sharoit yaratilgan bo'lib, ular uchun alohida kutish va o'qish zali mavjud. Shuningdek, ko'rish, eshitish va nutqida nuqsoni bor insonlar ushbu zalda brayl (qavariq nuqtalar) yozuvida hamda elektron va audio adabiyotlardan foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari mutaxassislar "Mehr kutubxonasi" loyihasi doirasida viloyatimizning imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan qatlamiga yangi adabiyotlarni yetkazish, tanishtirish, ularning ma'naviyatga, kitob mutolaasiga bo'lgan talabini qondirish maqsadida chiqishlar tashkil etmoqdalar Haftanining har juma kunida amalga oshirilayotgan bunday ezgu ishlar orqali kutubxonaga kela olmaydigan kitobxonlarning qiziqishlariga ko'ra adabiyotlarni yetkazib, yangi adabiyotlar bilan tanishtirib bormoqdalar. Katta samara berayotgan ushbu loyiha doirasida "Kar –soqovlar jamiyati"ning hududiy bo'limida faoliyat yuritayotgan imkoniyati cheklangan, eshitish va gapirishda nuqsoni bo'lgan, ijtimoiy ko'makka muhtoj insonlarga jamg'armadagi adabiyotlar haqida ma'lumotlar berib, audio va elektron adabiyotlar yetkazib berilmoqda.

Axborot-kutubxona muassasalarida mutaxassislar ommaviy tadbirlarning turli shakl va usullaridan foydalangan holda imkoniyati cheklangan shaxslarni ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, huquq va erkinliklari bilan tanishtirish, ularning jamiyatda sog'lom insonlar qatori

o’z o’rniga ega bo’lishi, mehr-muruvvat ko’rsatish singari insonparvarlik ishlarini amalga oshirishlari mumkin. Ta’kidlash o’rinliki, barcha axborot-kutubxona muassasalari tomonidan 3-dekabr – “Xalqaro nogironlar kuni”ga bag’ishlangan ommaviy-madaniy, sport va xayriya tadbirlari ko’proq amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo’ladi.

KUTUBXONACHIGA

Quyida e’tiboringizga nogironligi bo’lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularda mutolaa madaniyatini yuksaltirish maqsadida huquqiy va badiiy adabiyotlar asosida tuzilgan savollar orqali o’tkazilishi mumkin bo’lgan tadbir stsenariysini havola etamiz.

**“IJTIMOIY YAKKALAB QO’YISHDAN – TENGLIKKA”
mavzusida o’tkaziladigan “Breyn-ring” intellektual o’yini ssenariysi**

O’tkazilish joyi: _____

O’tkazilish vaqtி: _____

Hamkor tashkilotlar: _____

Tadbir yuzasidan sahnaning bir tarafida “Siz huquqingizni bilasizmi?”, ikkinchi tarafida esa “Men sevgan asar” mavzularida adabiyotlar ko’rgazmalari tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Ringda ko’zi ojizlar jamiyati hududiy bo’limlari a’zolaridan iborat 3 ta guruh (har bir guruhda 5 tadan qatnashchi) ishtirok etadilar.

Boshlovchi: Assalomu alaykum hurmatli tadbirimiz ishtirokchilari, aziz mehmonlar! Sizlarni bugungi “Breyn-ring” intellektual o’yinida ishtirokingiz bilan tabriklaymiz! O’yinimiz “Ijtimoiy yakkalab qo’yishdan - tenglikka” shiori ostida o’tkaziladi. O’yinda ishtirokchilarning huquqiy savodxonligi va mutolaa madaniyati bo’yicha bilimlari sinovdan o’tkaziladi. Ishtirokchilar, sizlar bugungi o’yin orqali o’z mahoratingiz, bilimingiz, zukkoligingiz va tezkorligingizni namoyish etasizlar. Mamnuniyat bilan davraga bugungi o’yinimizda o’zaro bellashadigan jamoalarni taklif qilamiz, marhamat!

(3 ta jamoaning nomlari o’qib eshittiriladi va qarsaklar ostida davraga chiqadilar va o’z joyini egallaydilar)

Boshlovchi: Aziz ishtirokchilar, bugun sizlarga nafaqat bilim, balki do'stlik ham kerak bo'ladi. G'alaba va omad barchangizga hamroh bo'lsin!

O'yinda jamoalarning chiqishlarini baholab borish uchun hakamlar hay'ati ham ishtirok etmoqda. Hozir ular bilan tanishtirib o'taman. Hakamlar hay'ati raisi: _____

A'zolari: _____

Boshlovchi: Mana hakamlar hay'ati bilan tanishib oldik, endi o'yinimizni boshlaymiz. Jamoalar, o'yin qoidalari bilan tanishing: 1-turda har bir jamoa uchun 3 tadan huquqiy savollar tayyorlangan. Savollarni jamoa sardorlari tanlaydilar va har bir savolga tayyorgarlik ko'rish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. 1-jamoa sardorini taklif qilamiz, savolni tortishingiz mumkin.

Savol: Qaysi tashkilot nogironlarga ijtimoiy yordam beradi?

Javob: Nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy yordam:

- mahalliy davlat hokimiysi organlari;
- sog'lijni saqlash;
- xalq ta'limi organlari;
- boshqa davlat organlari tomonidan tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarining xulosalari asosida ko'rsatiladi.

Savol: Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning salomatligini mustahkamlash, ijtimoiy-qo'lab quvvatlash bo'yicha qanday huquqiy kafolatlar yaratilgan.

Javob: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi mustahkamlab qo'yilgan.

Savol: Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning asosiy printsiplari nimalardan iborat?

Javob: Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- nogironligi bo’lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish;
- nogironlik belgisiga ko’ra kamsitilishga yo’l qo’ymaslik;
- insonning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi;
- nogironligi bo’lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o’z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish;
- ob’ektlar va xizmatlarning qulayligi;
- nogironligi bo’lgan shaxslarni jamiyat va davlatning hayotiga jalg etish. (4-modda)

(Shu tartibda har bir jamoa 3 tadan savollarni tortadilar va berilgan vaqt oralig’ida tayyorgarlik ko’rib javob beradilar, hakamlar hay’ati har bir savolga berilgan javoblarni baholab boradilar)

Boshlovchi: 1-tur savollari tugadi, jamoalar tomonidan javoblarni qabul qildik. Endigi navbat 2-turga. Bunda o’zbek va jahon adabiyoti durdonalaridan audioparcha o’qib eshittiriladi. Jamoalar bu parcha qaysi asardan olinganligini aytib berishlari kerak. Bu turda har bir parcha o’rtada o’qib eshittiriladi. Qaysi jamoada javob tayyor bo’lsa aytishlariga ruxsat beriladi. Tayyorlanish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. Barchaga yana bir bor omad tilagan holda 1-audioni qo’yib berishlarini iltioms qilamiz, marhamat!

1-audioparcha: “Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bulardan bittasi ichidan atlas ko’ynak, ustidan xon atlas guppi kiygan, boshig’a oq dakanani xom tashlag’an”
Ushbu misralar qaysi asardan olingan va kim ta’riflangan?

Javob: “O’tkan kunlar” asaridagi Oftob oyim

2-audioparcha: “Yana yozning jazirama issiqlari boshlandi. Bobur goh devoniomda, goh kutubxonada ishlar, mudom ichi kuyib, sovitilgan norinj sharbati va yaxna choy ichar, lekin chanqog’i hech bosilmas edi.” Audioparcha qaysi asardan olingan?

Javob: Pirimqul Qodirovning “Agra. Yulduzlar girdobi” asaridan

3-audioparcha: “Ovozlar Luiza juda yaxshi bilgan maydonchadan eshitilardi. Qizning juda yaxshi xotiralari shu joy bilan bog’langan edi. Qiz yana bir marta to’xtadi, bu safar juda ham yaqin borib qolgandi. U

bundan nari borishdan, uzi uchun achchiq bo'lgan haqiqatni bilishdan qo'rardi."

Tinglaganimiz ushbu parcha kimning qaysi asariga tegishli?

Javob: Tomas Mayn Ridning "Boshsiz chavandoz" asari

(*Shu tariqa 9 ta audioparchalar o'qib eshittiriladi. Eng ko'p to'g'ri javob bergen jamoa aniqlanadi*)

Boshlovchi: Hurmatli ishtirokchilar, tadbirimiz mehmonlari!

Jamoalarimizning o'zbek va jahon adabiyotidan bilimlarini sinovdan o'tkazish bo'yicha o'tkazilgan 2-turni ham yakunlab oldik. Ishtirokchi jamoalarimiz 3-turga tayyorgarlik ko'rgunlariga qadar shahrimizning-umumta'lim maktabi o'quvchilari tomonidan tayyorlab kelingan she'riy va musiqiy chiqishlarga navbatni beramiz, marhamat!

(*O'quvchilarning badiiy chiqishlari*)

Boshlovchi: Ona vatan va do'stlikni madh etuvchi go'zal she'rlar va kuy-qo'shiqlar uchun sizlarga o'z minnatdorchiligidimizni bildiramiz. Kelgusi o'qishlaringizda muvaffaqiyatlar tilab qolamiz. Rahmat!

Azizlar, mammuniyat bilan 3-tur boshlanishini e'lon qilaman. Bu turda ishtirokchi jamoalar o'zлari tayyorlab kelgan erkin mavzu bo'yicha iqtidorlarini namoyish etadilar. Marhamat, 1-jamoani sahnaga taklif qilamiz.

(*Jamoalar erkin mavzu bo'yicha chiqishlarini namoyish etadilar*)

Boshlovchi: Har bir jamoaga bir-biridan qiziqarli she'riy chiqishlar, monologlar, sahma ko'rinishlari uchun tashakkurlarimizni izhor etamiz. Hakamlar hay'ati 3 ta tur bo'yicha jamoalarga qo'yilgan baholarni jamlagunlariga qadar navbatni yana-umumta'lim makъabining iqtidorli o'quvchilariga bersakda, ular tomonidan tayyorlab kelingan raqlar guldastasini tomosha qilsak, marhamat!

(*O'quvchilarning raqsi*)

Boshlovchi: Mahoratli raqlar uchun rahmat, sog' bo'linglar!

Hurmatli hakamlar hay'ati, jamoalarimizning bugungi "Breyн-ring" intellektual o'yinida olgan baholarini e'lon qilish uchun so'z navbati sizlarga beriladi, marhamat!

(Hakamlar hay'ati tomonidan baholar e'lon qilinib, g'olib jamoa aniqlanadi)

Boshlovchi: Bugungi mas'uliyatli va sharaflı vazifani a'lo darajada bajarganingiz va odllik bitan g'olib jamoani aniqlab berganingiz uchun sizlarga katta rahmat aytamiz.

(Shundan so'ng musiqa sadolari va davomli olqishlar ostida jamoalarga 1-, 2-, 3-darajali diplomlar va esdalik sovg'alari topshiriladi)

Boshlovchi: Aziz mehmonlar, qadrli ishtirokchilar! Jamiyatimizda hammaning teng huquqli ekanligini ta'minlash, aholining imkoniyati cheklangan qatlamini ma'nан va ruhan qo'llab-quvvatlash orqali huquqiy ongini oshirish va ma'naviyatini yuksaltirish maqsadida o'tkazilgan "Ijtimoiy yakkalab qo'yishdan - tenglikka" mavzusidagi intellektual o'yinimiz o'z nihoyasiga yetdi. Bugungi o'tkazilgan o'yin orqali ko'zi ojiz do'stlarimizga ma'naviy ko'mak bera olgan bo'lsak, ko'zlagan maqsadimizga erishdik deb ayta olamiz.

Bugungi tadbirga qimmatli vaqtini ayamay tashrif buyurgan barcha mutaxassislar, ishtirokchilar, mehmonlar va o'quvchi yoshlarga o'zimizning minnatdorchiligidizni izhor etamiz. Keyingi tadbirlarda ko'rishguncha xayr, sog' bo'linglar!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya / mas'ul muharrir A. Saidov. — Toshkent : Baktria press, 2013. - 56 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [elektron resurs] // Kirish tartibi : <https://lex.uz/docs/6445145> erkin.
3. Nogironligi bo'lган shaxslarning huquqlari to'g'risida [elektron resurs] // Kirish tartibi : <https://lex.uz/acts/5049511> erkin.
4. "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni [elektron resurs] // Kirish tartibi : <https://lex.uz/acts/1372495> erkin.